

TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA TASNIFI

Komolov Aslamjon Xo'jamqul o'g'li

Samarqand viloyati Turizm va madaniy meros
bosh boshqarmasi davlat muassasasi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda turizm shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, uning rivojlanishi va taraqqiy etishi boshqa iqtisodiy sohalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Maqolada turizmni innovatsion rivojlantirishda investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va tasnifi bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, marketing, investitsiyalar, turizmدا innovatsiya.

ECONOMIC CONTENT AND CLASSIFICATION OF INVESTMENTS IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF TOURISM

Komolov Aslamjon Khujamkul ugli

Samarkand region Tourism and cultural heritage the head of
the department of the state institution of the general administration

Abstract: In this article, today tourism has such a unique feature that its development and progress leads to the development of other economic sectors. In the article, scientific proposals and recommendations on the economic content and classification of investments in the innovative development of tourism have been developed.

Key words: Tourism, marketing, investments, innovation in tourism.

Investition jarayonlar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun, xususan yuksalishga yuz tutgan, rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin

olishga intilayotgan mamlakatimiz uchun ham ustuvor ahamiyatga ega hamda o'ta dolzarb hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va investisiyalar o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida investision muhitni yaxshilash, investisiyalar hajmini kengaytirishga qaratilgan investision siyosat olib borishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish va yalpi ichki mahsulot hajmini ko'paytirish maqsadida 2019 yilda xorijiy sarmoyachilar bilan xamkorlikda 24,8 mlrd. dollarlik 243 ta loyiha ishlab chiqilgan va ularni amalga oshirish ishlari boshlab yuborilgan¹.

Investisiyalarning nazariy va amaliy muammolarini hal etish nafaqat moddiy ishlab chiqarish, balki nomoddiy soha, jumladan turizmni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki turizm sohasi milliy iqtisodiyot, uning alohida mintaqalarida boy tarixiy-madaniy salohiyatdan unumli foydalanishning muhim omili, ularning ijobiy samarasini bir necha barobar ko'paytiruvchi multiplikator hisoblanadi. Lekin turizm sohasini jadal rivojlantirishning dolzarb muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda avvalo transport, ijtimoiy va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmasi, rekreasion xududlarda xizmat ko'rsatish, yo'l bo'ylari infratuzilmasi ob'ektlarini rivojlantirish zarur. Miqdor va sifat jihatidan tez rivojlantirish davlat makroiqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan turizm ko'pdan-ko'p yangi turistik ob'ektlarni yaratishni, mavjud ob'ektlarni modernizatsiyalashni, yangi texnika va uskunalar bilan jihozlashni, turistik bozor va iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda yangi turmahsulot va qo'shimcha xizmat turlari bilan boyitishni taqozo etadi. Tabiiyki, bularning barchasi katta moliyaviy xarajatlarni, salmoqli investisiyalarni talab etadi. Soha mutaxassislari fikricha, turizmdan tushgan bevosita va bilvosita daromadlar sohani jadal rivojlantirishning muhim dastaklaridan biriga aylantiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Investitsilar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari.

Mutaxassislarning turizmni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan investisiyalarning qisqa muddatda oʻzini qoplashi toʻgʻrisidagi fikriga qoʻshimcha ravishda shuni taʼkidlash lozimki, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda moliyaviy resurslar taqchilligi kuzatilayotgan Oʻzbekiston amaliyotida ularning mazkur xulosasimuhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasini investisiyalash deganda, avvalambor sohaga foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida yoki mamlakat tashqarisida boʻlishidan qatʼiy nazar (bir yil yoki undan ortiqroq muddatda) uzoq muddatli kapital shaklida moliyaviy resurslarni sarflash hisoblanadi.

Turizmning hozirgi holatini baholashda, shuni alohida qayd etish lozimki, Oʻzbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi xorijiy turistlarning ehtiyojlarini toʻliq qondirish imkoniyatiga ega emas. Infratuzilma etarlicha rivojlanmagan sharoitda turistlar oqimini va shunga mos ravishda valyuta tushumini koʻpaytirish imkoni boʻlmaydi. Bundan kelib chiqqan holda, infratuzilmaning holati turizmning rivojlanishini taʼminlash bilan birga, mamlakat xalqaro turistik nufuzi va imijini ham shakllantirishga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Mamlakatimizda mavjud turistik resurslardan foydalanishda investisiyalarning oʻrni, turistik resurslarga bevosita investisiyalarni keng koʻlamda toʻgʻridan-toʻgʻri jalb etish va foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari deyarli oʻrganilmagan. Bular, oʻz navbatida, turizmni innovasion rivojlantirishda investisiyalarning rolini ochib berish va iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasiga bagʻishlangan mavzuni tadqiq qilishga asos boʻldi. Yana bir muhim jihati shundan iboratkai, yuqorida qayd etilgan mualliflarning ilmyi ishlarida “innovasion faoliyatning moliyaviy taʼminoti” tushunchasining izohi va mualliflik talqinlarini keltirib oʻtilmagan. Kengaytirilgan ishlab chiqarishga moliyaviy hamda nomoliyaviy sarflar jarayoni iqtisodiyotga doir adabiyotlarda va qonunchilikda “investisiyalash” tushunchasi bilan bogʻlanadi.

Innovasion loyihalarni investisiyalash tizimi innovasion dastur va loyihalarni, ilmiy tadqiqot va tajribaviy ishlanmalarni yaratish hamda amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiyalarni takomillashtirish, mamlakat yoki uning muayyan ma'muriy hududlarida innovasion faollikni oshirishga ko'maklashuvchi innovasion infratuzilmani shakllantirishga mo'ljallangan moliyalashtirishning manbalari, usullari va shakllarini o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda investision muhitning yaxshilanishiga, investisiya jarayonlarining sezilarli darajada faollashuviga erishildi. 2019 yilda mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar 189924,3 mlrd. so'mni tashkil etgan. Shundan, 35614,5 mlrd. so'm davlat sektoriga, 154309,8 mlrd. so'm nodavlat sektoriga to'g'ri keladi. 2019 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar tarkibi respublika byudjetiga 7,6 foizni, suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini rivojlantirish jag'armasi 0,9 foizni, korxonalar va aholiga 29,3 foizni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lariga 13,1 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar va kreditlariga 19,6 foizni, respublika kafolati ostidagi kreditlar 14,7 foizni, boshqa xorijiy investisiya va kreditlar 11,4 foizni, tiklanish va taraqqiyotga 3,4 foizni tashkil etgan². Shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 40 foizi to'plangan. To'rt viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahri yirik infratuzilma salohiyatiga ega. Turizmni rivojlantirish uchun mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bilan birga, har bir viloyatning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish muhimdir. Bularning barchasi yirik moliyaviy xarajatlarni, ya'ni investisiyalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. [Elektron resurs]. – Kirish yo'li: <https://www.stat.uz/uz/>

1. O'zbekiston Respublikasi turizm to'g'risidagi qonuni. –T.; O'zbekiston , Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan.
2. Кварталнов В.А. Международный туризм. Учебник. – М.: ФиС, 2007. – 235
3. Vahobov A. va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. – T.: —Sharqll, 2005.
4. Alieva M.T., Salimova B.X. Mehmonxona menejmenti. – T.: Moliya 2005,
5. Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2003,
6. Rahimbayev A.O Turizm nazariya va amaliyoti,; -T.; O'zbekiston 2017-yil.